

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil).– 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TURKISTON O'LKASIDA MUSTAMLAKA BANK-KREDIT TIZIMI: BIRLASHGAN BANK QO'QON FILIALINING 1911-YILGI HISOBOTI MISOLIDA

Abdullayeva Nilufar Rustam qizi

Namangan Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

1-kurs tayanch doktoranti

Email: abdullayevanilufar513@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan "Birlashgan bank" Qo'qon bo'linmasining 1911-yilgi yillik hisoboti manba sifatida tahlil qilinadi. Miqdoriy kontent-tahlil metodi asosida bo'linmaning moliyaviy aylanmalari, ma'muriy-operatsion xarajatlari va muddati o'tgan qarzlarning tarkibi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'linma faoliyati asosan vekselli-tovar krediti va xomashyo savdosini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning korrespondentlik hisoblari orqali imperiya markaziy moliya bozorlariga qattiq bog'liqligi kuzatiladi. Shubhali qarzlarning ro'yxatidagi onomastik tahlil Qo'qon savdo-moliyaviy muhitining ko'p etnik (rus, yahudiy, mahalliy musulmon) tarkibini ochib beradi. Maqola Turkiston o'lkasi kolonial iqtisodiy tarixini mikro-manbalar asosida o'rganish imkoniyatlarini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, mustamlaka bank tizimi, Qo'qon, Birlashgan bank, veksell krediti, arxiv manbashunosligi, iqtisodiy tarix.

COLONIAL BANKING-CREDIT SYSTEM IN TURKISTAN: ON THE EXAMPLE OF THE 1911 REPORT OF THE KOKAND BRANCH OF THE UNITED BANK

Abdullaeva Nilufar Rustam qizi

Faculty of Social Sciences, Namangan State University

1st year basic doctoral student

Annotation. The article analyzes the 1911 annual report of the Kokand branch of the "United Bank", stored in the Central State Archive of the Republic of Uzbekistan. Based on the quantitative content analysis method, the financial turnover, administrative and operational expenses and the composition of overdue debts of the branch were studied. The results show that the activities of the branch were mainly directed to financing promissory notes and commodity loans and raw material trade, and its close dependence on the central financial markets of the empire through correspondent accounts is observed. Onomastic analysis of the list of doubtful debts reveals the multi-ethnic (Russian, Jewish, local Muslim) composition of the Kokand trade and financial environment. The article demonstrates the possibilities of studying the colonial economic history of the Turkestan region on the basis of micro-sources.

Keywords: Turkestan region, colonial banking system, Kokand, United Bank, promissory note loan, archival source study, economic history.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i15/n07>

Kirish

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi hududida Rossiya imperiyasining yirik tijorat banklari faol tarmoq ochgan bo'lib, ular mintaqaning kolonial iqtisodiyotga integratsiyalashuv jarayonida markaziy vosita vazifasini bajargan. Ushbu banklar tarmog'ining mahalliy viloyat va tuman darajasidagi bo'linmalari faoliyatini o'rganish, umumiy statistik ko'rsatkichlardan farqli o'laroq, kolonial kredit tizimining kundalik amaliyoti va ijtimoiy tarkibini aniqroq tiklash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi, Qo'qon shahrida 1893-yildan buyon faoliyat yuritgan «Birlashgan bank» bo'linmasining 1911-yilgi yillik hisoboti misolida[7] bank-kredit institutining Farg'ona vodiysi savdo-iqtisodiy hayotidagi o'rnini, uning moliyaviy tuzilishini va mijozlar (qarzdorlar) tarkibining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari

quyidagilardan iborat: (1) bo'linmaning yillik moliyaviy aylanmalari tarkibini tahlil qilish; (2) ma'muriy-operatsion xarajatlar strukturasi orqali muassasaning mehnat tashkiloti xususiyatlarini ochib berish; (3) muddati o'tgan qarzar ro'yxati asosida kredit oluvchilar tarkibining ijtimoiy-etnik xilma-xilligini aniqlash.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Turkiston o'lkasi kolonial iqtisodiy tarixi bo'yicha mavjud tadqiqotlar ko'pincho umumlashtirilgan statistik ma'lumotlarga tayanadi, mikro-darajadagi ya'ni bitta bank bo'linmasi darajasidagi hujjatli manbalar esa nisbatan kam jalb etilgan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Materiallar va tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning asosiy manbasi — O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan, Fond I-716, Ro'yxat 1, Ish 2 raqami ostidagi «Отчетъ Кокандскаго отдѣленія Соединеннаго банка за 1911 годъ» nomli hujjatdir[3]. Hujjat 1912-yil 1-yanvar holatiga tasdiqlangan bo'lib, eski rus imlosida (дореформенная орфография), qo'lyozma va bosma matn birikmasida tuzilgan.

Hisobot Rossiya imperiyasi Moliya vazirligi tomonidan barcha aksiyadorlik tijorat banklari uchun majburiy tartibga solingan yagona shaklda tuzilgan, bu esa uni boshqa bank bo'linmalari hisobotlari bilan qiyosiy tahlil qilish uchun metodologik jihatdan qulay manbaga aylantiradi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: (1) manbashunoslik tahlili — hujjatning kelib chiqishi, ishonchliligi va tarkibiy tuzilishini baholash; (2) miqdoriy kontent-tahlil — hisobotdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni jadvashtirish va ularning nisbiy ulushlarini hisoblash; (3) prosopografik (onomastik) tahlil — qarzdorlar ro'yxatidagi familiya-ism-sharbillarni ijtimoiy-etnik guruhlariga tasniflash orqali kredit oluvchilar tarkibini rekonstruksiya qilish.

Tahlil uchun hisobotning uchta asosiy bo'limi tanlab olindi: № 2-jadval («Обороты» — yillik moliyaviy aylanmalar)[3], № 31-33-jadvallar (joriy va operatsion xarajatlar)[3] hamda № 50-jadval (o'n yillik muddati tugamagan, zararga yozilgan ishonchsiz qarzar ro'yxati)[3].

Natijalar

1. Moliyaviy aylanmalar tarkibi

Hisobotning «№ 2. Обороты» jadvali bo'linma faoliyatining umumiy ko'lamini aks ettiradi[3]. Yil davomidagi jami debet va kredit aylanmasi 166.566.478,66 rublni tashkil etgan, bunda debet va kredit muvozanati aniq (83.283.239,33 rubl har biri)[3], bu davr bank buxgalteriyasining ikki tomonlama yozuv tizimiga qat'iy rioya qilinganligining dalilidir.

1-jadval.

Qo'qon bo'linmasining 1911-yilgi asosiy hisob moddolari bo'yicha aylanmalari.

Hisob moddasi	Debet (rubl)	Kredit (rubl)	Jami (rubl)
Kassa	11 094 121,29	11 082 417,45	22 176 538,74
Davlat bankidagi joriy hisoblar	10 719 128,89	10 717 530,10	21 436 658,99
Kamida 2 imzoli veksellarni hisobga olish	3 415 883,09	2 629 685,—	6 045 568,09
Veksel va savdo majburiyati garovidagi ssudalar	8 195 513,15	7 953 780,12	16 149 293,27
Tovar, qabz va konosament garovidagi ssudalar	3 700 736,26	3 418 618,16	7 119 354,42
«Loro» korrespondentlik hisoblari	9 612 274,17	9 703 303,67	19 315 577,84
Komissiyadagi veksel va qimmatliklar	3 105 599,61	2 950 431,25	6 056 031,76

Ushbu tuzilma shuni ko'rsatadiki, bo'linma faoliyatining tayanch ustuni veksel muomalasi va tovar-mol garovidagi qisqa muddatli kreditlash edi. Veksellarni hisobga olish va ularni garov sifatida qabul qilib ssuda berish operatsiyalari yig'indisi jami aylanmaning taxminan 18-20 foizini tashkil etgan. «Loro» korrespondentlik hisoblarining yuqori hajmi (19,3 mln. rubl) bo'linmaning bosh bank tarmog'i va imperiyaning markaziy moliya bozorlari bilan uzluksiz bog'langanligini ko'rsatadi.

2. Ma'muriy-operatsion xarajatlar strukturasi

Hisobotning № 31-jadvali bo'linmaning joriy xarajatlari tarkibini ochib beradi[3]. Yillik jami xarajat 66.920 rubl 29 tiyinni tashkil etgan, shundan eng katta ulush — xodimlar maoshi (45.512 rubl 77 tiyin, ya'ni xarajatlarning taxminan 68 foizi):

2-jadval.

Xodimlar toifalari bo'yicha yillik maosh fondi taqsimoti.

Xodimlar toifasi	Yillik maosh (rubl)
Bo'lim boshqaruvi (boshqaruvchi, tovar boshqaruvchisi, a'zolar)	15 149,98
Buxgalter va idora xodimlari	21 833,34
Artelchilar (moddiy javobgar xodimlar)	6 631,98
Xizmatchi/prislugalar	1 897,47

Bu tuzilma bank ma'muriyati bilan oddiy texnik xodimlar o'rtasidagi ish haqi tafovutini yaqqol ko'rsatadi: buxgalteriya va boshqaruv xodimlari (37 ming rubldan ortiq) bilan qo'l ostidagi xizmatchilar (atigi ~1,9 ming rubl) o'rtasidagi nisbat taxminan 19:1 ni tashkil etadi. Hisobot ilovasidagi izohda 17 yoshga to'lmagan shaxslarga hamda jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi, shaxsiy savdo solig'idan ozod xodimlarga berilgan mukofot va nafaqalar summasi (2.699 rubl 34 tiyin) alohida ko'rsatilishi talab qilingan.

№ 32-jadvaldagi operatsion xarajatlar (jami 3.237 rubl 44 tiyin) tarkibida pochta-telegraf xarajatlari (1.963 rubl 39 tiyin, ya'ni 60 foizdan ortiq) ustunlik qiladi[3], bu Qo'qon bo'linmasining bosh bank va boshqa filiallar bilan doimiy operativ aloqa saqlash zaruratini ko'rsatadi.

3. Muddati o'tgan qarzlar tarkibi va qarzdorlarning onomastik xususiyatlari

Hisobotning № 50-jadvali “o'n yillik muddati hali tugamagan, o'tgan yillarda zararga yozilgan ishonchsiz qarzlar ro'yxati” 1904-1909 yillar oralig'ida vujudga kelgan, jami 4.201 rubl 38 tiyinlik (faqat oxirgi sahifada aks etgan qismi) undirilmagan qarzlarni o'z ichiga oladi.

3-jadval.

Muddati o'tgan qarzlar ro'yxati (1904–1909 yillar).

Qarzdor	Operatsiya turi	Yil	Summa (rubl)
Slutskiy I.M.	Davlat foizli qog'ozlari	1904	608,90
Ochev V.A.	"	1907	73,29
Aleksandrov D.A.	"	1907	110,32
Jamberdi Ismatullaboev	Yarim savdo veksellari	1907	723,70
Madqosim Mad Razoqboev	"	1908	200,—
Mirsobit Mir Badaloboev	"	1908 / 1908	400,— / 400,—
Ibrohim va Xushqiya Qalantarova	"	1908 / 1909	50,— / 378,10
Elazar Pinxasov	"	1908 / 1909	180,— / 368,49

Qarzdor	Operatsiya turi	Yil	Summa (rubl)
Miromid G'ozzi Yoqubboev	"	1909	600,—

Ro'yxatdagi onomastik tarkibni tahlil qilish qarzdorlarning kamida uchta ijtimoiy-etnik guruhga mansubligini ko'rsatadi: (1) rus/slavyan familiyalari shaxslar (Slutskiy, Ochev, Aleksandrov); (2) yahudiy kelib chiqishli familiyalar (Pinxasov, Qalantarova); (3) mahalliy musulmon (o'zbek/tojik) savdogarlar (Ismatullaboev, Razoqboev, Badaloboev, Yoqubboev, Amirboev) — barchasi «yarim savdo veksellari» (полутоварные векселя) operatsiyasi bo'yicha qarzdor bo'lib, bu ularning paxta va boshqa xomashyo savdosiga tovar garovi asosida kredit olganligini bildiradi.

Muhokama

Olingan natijalar Turkiston o'lkasidagi kolonial-kapitalistik kredit tizimining bir qancha muhim xususiyatlarini ochib beradi. Birinchidan, bo'linma faoliyatining tuzilishi (veksel muomalasi va tovar garovidagi ssudalarning yuqori ulushi) shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysidagi bank kapitali birinchi navbatda qishloq xo'jaligi xomashyosi xususan paxta savdosini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu Turkistonning imperiya iqtisodiyotidagi xomashyo bazasi rolini moliyaviy jihatdan mustahkamlagan.

Ikkinchidan, korrespondentlik («Loro») hisoblarining yuqori hajmi bo'linmaning markazlashgan bank tarmog'iga qattiq bog'liqligini, demak mustamlaka hududdagi moliyaviy resurslarning imperiya markaziy bozorlari bilan uzluksiz aylanishini tasdiqlaydi, bu esa mustamlaka iqtisodiyotining o'ziga xos «moliyaviy drenaj» mexanizmi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Uchinchidan, shubhali qarzlarning ro'yxatidagi onomastik tarkib Qo'qon savdo-moliyaviy muhitining ko'p qatlamli, ko'p etnik xarakteri rus amaldorlari, yahudiy vositachi-savdogarlar va mahalliy musulmon tadbirkorlarning bir kredit tizimi doirasida qatnashganligini hujjatli tasdiqlaydi. Qarzlarning «o'n yillik davomiylik» muddati bilan bog'liq maxsus buxgalteriya nazorati shuni ko'rsatadiki, bank bu qarzlarni butunlay yo'qotilgan deb hisoblamagan, balki kelajakda «yarashuv bitimi» (мировая сделка) orqali qisman undirish imkoniyatini saqlab qolgan. 35-betdagi keyingi (1914-yilga oid) qo'lyozma izoh bu qarzlarning bo'yicha nazorat bosh bank darajasida ham amalga oshirilganligini ko'rsatadi[3].

Nihoyat, hisobotning buxgalteriya aniqligi (debet-kredit muvozanatining bir tiyngacha mos kelishi) va ko'p bosqichli hisobotchilik tizimi imperiya moliya nazorati mexanizmining Turkiston kabi chekka o'lkalarda ham markaziy standartlar asosida qat'iy tatbiq etilganligini isbotlaydi. Bu natijalar mavjud tarixshunoslikda Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi umumiy moliyaviy-huquqiy makoniga integratsiyalashuv darajasi haqidagi tezislarni mikro-manba darajasida tasdiqlaydi va boyitadi.

Xulosa

«Birlashgan bank»ning Qo'qon bo'linmasi 1911-yilgi hisoboti mikro-darajadagi manba sifatida Turkiston o'lkasi kolonial bank-kredit tizimining tuzilishi, mehnat tashkiloti va mijozlar tarkibi haqida boy empirik material beradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, bank kapitali xomashyo savdosini moliyalashtirishga yo'naltirilgan, korrespondentlik aloqalari orqali imperiya markazi bilan chambarchas bog'langan, mijozlar tarkibi esa ko'p etnik xarakterga ega bo'lgan. Ushbu xulosalar Turkiston iqtisodiy tarixini yanada chuqur o'rganish uchun boshqa bank bo'linmalarining tegishli hisobotlarini qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Аминов А. М. Экономическое развитие Средней Азии (Колониальный период) / А. М. Аминов. — Ташкент : Госиздат,1959.
2. А.Аминов, А.Бабаходжаев. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Ташкент;Узбекистан.1966.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Fond I-716, Ro'yxat 1, Ish 2. "Отчетъ Кокандскаго отдѣленія Соединеннаго банка за 1911 годъ".
4. Юшков.К.М. Деятельность банковских кредитных учреждений Российской империи в Средней Азии с 90-Х гг. XIX в. – по 1914 г.// Заметки.
5. Вексельман М. И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX — начало XX в.) / М. И. Вексельман. — Ташкент : Фан, 1987.
6. Гиндин И. Ф. Банки и экономическая политика в России (XIX — начало XX в.). Избранное. Очерки истории и типологии русских банков / И. Ф. Гиндин. — М. : Наука, 1997.
7. Bo'linma faoliyat boshlagan sana hisobot muqovasida qayd etilgan: «Отдѣленіе открыто 14 Декабря 1893 года».

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil). – 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.